



UO'K:371.012+37.017

BOSHQARUV TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI**ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ****PROBLEMS OF INCREASING THE SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN IN THE SYSTEM OF STATE POWER****Arzimatova Inoyatxon Madimarovna** 

Farg'ona davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada hozirgi davrning muhim muammolaridan biri jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtiroki, boshqaruv jarayonida ayol rahbarlarning roli muhimligi, ularning faoliyati ayollarning hamda yoshlarning ham ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir etishi hamda jamiyatda xotin-qizlarning o'ziga xos o'rni, faoliyati ko'p hollarda ularning boshqaruv tizimida bajaradigan funksiyalari bilan bog'liq bo'lib, bu jihat rahbar xotin-qizlarning faoliyatini o'ziga xos jihati sifatida ba'zan murakkabliklarni yoki aksincha, ularning faoliyatida nisbatan engillikni yuzaga keltirishi o'rganilgan. Xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda intilishlari, orzu tilaklarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, ularni ob'ektivlashtirish ikki tomon – ayollar uchun ham, davlat boshqaruvi tizimi uchun ham muhimdir. Ayollarning o'zini namoyon qilishi, bilimi, tajribasi va salohiyatini yuzaga chiqara olishi, ularni yanada rivojlantirib realizatsiya qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi davlat boshqaruv tizimining ijobiy dinamikasi va aholining manfaatlariga xizmat qiladi. Bunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ayollarning siyosiy madaniyatini, faolligini yanada yuksaltirishi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается одна из важных проблем современности - повышение социальной активности членов общества, их активное участие в демократических реформах и социально-политических процессах, реализуемых в обществе, значение роли женщин-лидеров в процессе управления, положительное влияние их деятельности на социальную активность как женщин, так и молодежи, а также специфическая роль женщин в обществе, их деятельность часто связана с функциями, которые они выполняют в системе управления, и этот аспект, как специфическая черта деятельности женщин-лидеров, порой создает трудности или, наоборот, относительную легкость в их деятельности. Социализация женщин, создание необходимых условий для реализации их стремлений и мечтаний в социально-политических процессах, их объективация важны как для женщин, так и для системы государственного управления. Возможность женщин самовыражаться, раскрывать свои знания, опыт и потенциал, иметь возможность их дальнейшего развития и реализации служит положительной динамикой системы государственного управления и интересам населения. Анализируется, что такие социально-политические процессы еще больше повышают политическую культуру и активность женщин.

Abstract

The article considers one of the important problems of our time - increasing the social activity of members of society, their active participation in democratic reforms and socio-political processes implemented in society, the importance of the role of women leaders in the management process, the positive impact of their activities on the social activity of both women and youth, as well as the specific role of women in society, their activities are often associated with the functions they perform in the management system, and this aspect, as a specific feature of the activities of women leaders, sometimes creates difficulties or, conversely, relative ease in their activities. Socialization of women, creation of the necessary conditions for the realization of their aspirations and dreams in socio-political processes, their objectification are important both for women and for the public administration system. The ability of women to express themselves, reveal their knowledge, experience and potential, have the opportunity for their further development and implementation serves the positive dynamics of the public administration system and the interests of the population. It is analyzed that such socio-political processes further enhance the political culture and activity of women.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, jamiyat, demokratik islohotlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, boshqaruv tizimi, ayol rahbarlar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari, gender tenglik, faol ijtimoiy pozitsiya.

Ключевые слова: общественный активизм, общество, демократические реформы, социально-политические процессы, система управления, женщины-лидеры, социально-политические, экономические и культурные права женщин, гендерное равенство, активная социальная позиция.

Key words: social activism, society, democratic reforms, socio-political processes, governance system, women leaders, socio-political, economic and cultural rights of women, gender equality, active social position.

KIRISH

Hozirgi davrning muhim muammolaridan biri jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iborat. Bu jarayonda albatta, ayol rahbarlarning roli muhim bo'lib, ularning faoliyati ayollarning hamda yoshlarning ham ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Jamiyatda ayollar siyosati bilan bog'liq bo'lgan hamda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, rahbarlik lavozimlariga ayollarni tayinlash.
2. Oilada gender tenglikni qaror toptirish, diskriminatsiyaga qarshi kurash.
3. Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga ayollarni kengroq jalb etish.
4. Boshqaruv tizimini takomillashtirishga ko'maklashish.

Bu o'rinda ta'kidlash zarurki, jamiyatda xotin-qizlarning o'ziga xos o'rni, faoliyati ko'p hollarda ularning boshqaruv tizimida bajaradigan funksiyalari bilan bog'liq bo'lib, bu jihat rahbar xotin-qizlarning faoliyatini o'ziga xos jihati sifatida ba'zan murakkabliklarni yoki aksincha, ularning faoliyatida nisbatan engillikni yuzaga keltiradi.

Xotin-qizlarning mas'ul rahbar xodim sifatida faoliyat olib borishi, davlat boshqaruvi tizimida mas'ul xodim, rahbar, tashkilot a'zosi sifatida ma'lum funksiyalarni bajarishi ko'p hollarda ularning faol ijtimoiy pozitsiyasi, ko'plab sohalarda (mahalla, turli jamoat tashkilotlari, jamoa yoki mahalla faoli va boshqalar) ixtiyoriy amalga oshirayotgan faoliyati bilan ham o'zaro bog'liqlikda amalga oshirilishi tabiiy. Bu o'rinda jamiyatda xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi mas'ul xodim yoki rahbar lavozimidagi faoliyati va ularning o'z jamoasida, jamiyatda faol shaxs, jamoatchi sifatida yurgizayotgan faoliyatini farqlash zarur. Xotin-qizlar ko'p hollarda jamoatchilik asosida ixtiyoriy olib borayotgan faoliyatini boshqaruv tizimiga ham olib kirishi tabiiy. Bunday holat ularning o'zi uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir.

Albatta, jamoatchi xotin-qizlarning jamiyatda faolligi, ularning ixtiyoriy amalga oshirayotgan vazifalari boshqaruv tizimining taraqqiyotiga, uning yanada samarali ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ixtiyoriy funksiyalarini, jamoatchilik faoliyatini davlat boshqaruvi tizimining majburiy funksiyalari bilan uyg'unlashtira olgan rahbar xotin-qizlar jamiyatning ijtimoiy hayotini o'zgartiruvchi, uni yangilovchi yoki rivojlantiruvchi faol sub'ektga aylanadi. Ular faol sub'ekt sifatida shunchaki faoliyat olib boruvchi emas, balki jamiyat va uning a'zolari hayotiga va davlat boshqaruvi tizimiga ta'sir etuvchi faol shaxs hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolarini yoritishda Парсонс Т. [1], Tuychiev B. [2, 3], Odilqoriev X. [4], Huseynova A. [5] asarlaridan hamda <http://www.isrs.uz/uz/election/hotin-kizlarning-sajlov-ukuklari-kafolatlari> [6], O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (O'zR 25. 06. 2019 y. O'RQ-544-son Qonuni bilan tasdiqlangan), <https://nrm.uz/contentf?doc=592387> [7], <https://chatgpt.com/c/678217e3-ce44-8006-b283-917bd15689fd> internet saytlardan unumli foydalanildi.

Muammoni o'rganishda umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, mavhumlikdan aniqlikka yuksalish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi sharoitida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, demokratik qadriyatlarining qaror topishidagi o'rni beqiyos ahamiyatga ega.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy yangilanish davrida fuqarolarning quyidagi jarayonlarda:

- jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar, ilg'or demokratik qadriyatlarining yuzaga kelishi;

- demokratik qadriyatlarining milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

- demokratik tamoyillar, O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonun ustuvorligi;

- demokratik tamoyillar va erkinlikning jamiyat hayotida tobora qaror topishi va boshqalarda faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etilgan jarayonlar jamiyat a'zolarining, xotin-qizlarning, ayniqsa yoshlarning ijtimoiylashuvi, jamiyat hayotida o'zining tegishli faoliyati asosida ishtiroki bilan bog'liq. Aslida

SIYOSAT

ijtimoiylashuv jamiyatning har bir a'zosini jamiyatga aloqadorligini, uning faoliyatini jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitiga tegishli ekanligini anglatadi. T.Parsonsning fikricha, insonlarning ijtimoiylashuvi jarayonida madaniyat muhiti muhim bo'lib, unda yoshlar o'zaro madaniy, ma'naviy, axloqiy va boshqa munosabatlar ta'sirida bo'ladilar. Bunda madaniyat, madaniy meros, qadriyatlar, an'analar, axloq qoidalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi [1, B. 462-478].

Xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda intilishlari, orzu tilaklarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, ularni ob'ektivlashtirish ikki tomon – ayollar uchun ham, davlat boshqaruvi tizimi uchun ham muhimdir. Ayollarning o'zini namoyon qilishi, bilimi, tajribasi va salohiyatini yuzaga chiqara olishi, ularni yanada rivojlantirib realizatsiya qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi davlat boshqaruv tizimining ijobiy dinamikasi va aholining manfaatlariga xizmat qiladi. Bunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ayollarning siyosiy madaniyatini, faolligini yanada yuksaltiradi.

Davlat, uning boshqaruv tizimi, umuman ijtimoiy boshqaruv hech kimni befarq qoldirmagan, chunki ushbu institutlarning faoliyati kishilar, xalq, millat hayoti, taqdiri bilan bog'liqdir. Shu bois ham ayollar, ayniqsa, ularning ijtimoiy-siyosiy faol qismi jamiyatda mavjud muammolarini hal etishga o'z hissasini qo'shadilar.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy borliqqa munosabatlari ularning ijtimoiy belgilarini, davlat boshqaruvida samarali qatnashishini ta'minlaydigan ijtimoiy xislatlarini bilishga, o'rganishga undaydi. Ayollarning jamiyatda va unda amalga oshirilayotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonlardagi o'rni va mavqei ularning siyosiy madaniyatiga bog'liqdir. B.T.To'ychievning yozishicha, siyosiy madaniyat jamiyatning iqtisodiy tizimiga bevosita bog'liq bo'lib, u ma'naviy hayotning barcha sohalarini ta'sirida shakllanadi [2, B. 30]. "Siyosiy madaniyat, – deb yozadi B.T.To'ychiev, – kishilarning siyosiy xatti-harakatlari uchun ustuvor prinsiplar, jamoaga uning uyushqoqligini ta'minlovchi qadriyatlar tizimi asosini tashkil etadi.

U siyosiy xulq-atvor uchun ustuvor prinsiplar, ijtimoiy normalar va ideallar sifatida ijtimoiy institutlar va tashkilotlarni uyushtiradi, bir-biriga ta'sirini ta'minlaydi, siyosiy sohani yaxlit va integrativ xarakterini ifodalaydi..." [3, B.34]. Shu bilan birga, olim siyosiy madaniyat siyosiy ong, siyosiy bilim, siyosiy tajriba bilan bog'liq, inson faoliyatining qolgan sohalarini integratsiya qiluvchi voqelik ekanini ham ta'kidlaydi. Demak, sof siyosiy voqelik yo'q, siyosat mohiyatan jamiyat va davlat hayoti bilan bog'liq ekan, ijtimoiy-siyosiy faollik ham siyosiy madaniyatning integrativ xususiyati nuqtai nazaridan qaralishi lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, siyosiy madaniyat shaxs madaniyatining shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, rahbar kadrlar siyosiy madaniyatining yuksakligi, ularning o'z faoliyatida madaniyat qoidalariga amal qilishi ko'pchilik uchun o'rnak bo'lishi hamda tegishli jamoaning madaniy muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xotin-qizlar davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritar ekan, ijtimoiy hayotning rang-barang sohalariga va muammolarga duch keladi, ularni hal etishga intiladi. Ko'p hollarda yuzaga kelgan muammolarni to'g'ri hal etilishi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy madaniyat jamiyat va davlat haqida eng muhim ilmiy-nazariy ta'limotlardan, davlatimiz Konstitutsiyasi va muhim qonunlardan yaxshi xabardor bo'lish demakdir. Jamiyat va davlat amal qiladigan siyosiy-huquqiy normalarni bilmay, boshqaruv tizimiga aralashib, jamiyat va davlat ishlarini boshqarib, olib borib bo'lmaydi [4, B.44-45]. Shuning uchun siyosiy madaniyatni egallash – ijtimoiy-siyosiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish kafolatidir. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlovchi navbatdagi belgi – sifat, ya'ni ularning kasbiy yuqori bilimga egaligi bilan bog'liq.

Ma'lumki, ayollar psixologiyasiga ma'naviy-ruhiy da'vatlarga, ehtiros va chaqiriqlarga berilish xos xususiyatdir. Bu holat ularning tashqi ta'sirlarga tez berilishini bildiradi, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'pincha sovuqqonlikni, dadillikni, mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, noodatiy usullar qo'llashni taqozo etadi.

Ayol-lider yoki ijtimoiy-siyosiy faol sub'ekt o'zining nafaqat psixologik xususiyatlariga, shuningdek boshqarish ishlarini olib borishning o'ziga xos stiliga, texnologiyasi, ya'ni boshqarish madaniyatiga ega. Uning ushbu immanent belgilarida erkaknikidan farq qiluvchi jihatlar mavjud. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda "ayol psixologiyasi", "ayol menedjmenti", "ayol-lider" kabi sohalar mavjudligi qayd etiladi.

Xotin-qizlarning boshqarish ishlaridagi yumshoqligi, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishi, hatto ish jarayonida ham oilasini, farzandlarini o'ylashi ularning kamchiliklari emas, balki o'ziga xos ichki, immanent xususiyatlari, hatto yutuqlaridir. Bu o'rinda aslida Sharq ayollariga xos bo'lgan xislatlar, fazilatlar ko'zga tashlanadi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga erishish, eng avvalo, ularni ish bilan bandligini ta'minlash, iqtisodiy munosabatlarga, bozor iqtisodiyotiga jalb qilishni taqozo etadi. Ushbu munosabatlardan tashqarida hech qanday ijtimoiy faollik shakllanmaydi. O'z ishiga, mulkiga, iqtisodiy hayotdagi o'rniga ega bo'lgan sub'ektgina jamiyat tashvishlarini to'g'ri qabul qiladi, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish mexanizmlarini topadi va taklif etadi. To'g'ri, iqtisodiy faollikni ayollar ijtimoiy-siyosiy xarakteriga ega voqelik sifatida qabul qilishdan yiroqdir. Ularning xususiy mulkka ega bo'lishida o'ziga xoslik, ya'ni xususiy mulkka eng avvalo oilaning moddiy ahvolini yaxshilash manbai deb qarash ustunlik qiladi. "Ayollar xususiy mulkka uni yanada kengaytirish, yangi-yangi mahsulotlar yaratish, yangi ish joylari ochib hududda yoki sohada barqaror mavqega erishish uchun emas, balki oilaviy-moddiy shart-sharoitlarini yaxshilash manbai deb qarashga moyildir. Ular uchun umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot emas, balki oilaviy hayotni farovonlashtirish birinchi galdagi vazifadir" [5, B.63]. Xuddi shuningdek, oilaviy farovonlikni oshirish omilini xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy manfaatlaridan ham yuqori qo'yadilar. Ulardagi ushbu oilaparastlikni mutlaq qoralash, taraqqiyotga zid narsa deb qaramaslik zarur, balki oila farovonligi jamiyat taraqqiyotining manbai va ko'rsatkichidir.

Bugungi kunda deyarli barcha partiyalarda rahbar o'rinbosarlaridan biri ayol kishi bo'lib, ularda ayollar qanotlari mavjud. 700 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlar xotin-qizlar muammolari bilan shug'ullanadi. NNTlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ular o'rtasida tajriba almashish, ijtimoiy xizmatlar bazasini takomillashtirish maqsadida 2019 yilning fevral oyida "Xotin-qizlar ijtimoiy siyosiy faolligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar tajribasi" mavzusida respublika xotin-qizlar forumi bo'lib o'tdi va forum yakuniga ko'ra xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanadigan "NNTlar Klubi" tashkil etildi.

Bugungi kunda ushbu klubning a'zolari soni 58 taga etdi. Shuningdek, ushbu Klub doirasida ijtimoiy xizmatlar klasteri ishlab chiqildi.

Qashqadaryo, Xorazm, Farg'ona va Qoraqalpog'iston Respublikalarida NNTlar bilan hamkorlikda ayollar uchun huquqiy klinika tashkil etildi.

NNTlar va tashkil etilgan shelterlar faoliyatini yaxshilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun YuNISEF fondi tomonidan 56 ming AQSh dollari miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi. "Oydin nur, "Rahmdillik", "Mehr ko'zda", "Nihol" NNTlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro tashkilotlarning 20 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari jalb etildi.

O'tkazilgan sayyor qabullarda 63 nafar xotin-qizlarning muammolari joyida o'rganildi va amaliy yordam ko'rsatildi. Bundan maqsad - xotin-qizlarning Toshkent shahriga kelib ketish uchun sarflayotgan xarajatlarini tejash va ularni qiynayotgan muammolarini joyida hal etish.

"Istiqbolli avlod" NNT bilan odam savdosi qurboni bo'lgan 12 nafar xotin-qizlarga amaliy yordam ko'rsatildi va ular o'z oilalariga qaytarildi.

"Sabr" ijtimoiy rivojlanish nodavlat tashkiloti hamkorligida 340 nafar ayollarga psixologik, huquqiy, ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatildi, 17 marta sayyor qabullar tashkil etildi.

"Sharq ayoli" fondi bilan xotin-qizlarning o'rnini va rolini oshirishga qaratilgan ishlar tashkil etilib, hamkorlikda "Yil ayoli" tanlovi an'anaviy tarzda tashkil etilmoqda.

"Nihol" NNT bilan hamkorlikda yosh qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama rivojlantirish va mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan dasturlar qabul qilingan.

Olib borilgan ishlar va tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimida ayollar masalalari bilan shug'ullanuvchi NNTlar faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarini tashkillashtirishda kamchiliklar ham aniqlandi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun:

- NNTlarning sheriklik faoliyatini yanada takomillashtirish, O'zbekistonda ayollarning jamiyatdagi va oiladagi mavqegini oshirish sohasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishga qaratilgan Konsepsiyani ishlab chiqish va amalga oshirish;

- Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender masalalari qo'mitasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hududlardagi ayollar va oilalar masalalari bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlar bilan har yili qabul qilinadigan Davlat dasturlarida belgilangan vazifalarni hamkorlikda bajarishi, shu bilan birga, ayollar va oilalar muammolarini hal etishda NNTlar rolini kuchaytirish,

SIYOSAT

ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun xalqaro tashkilotlarni va grantlarni kengroq jalb qilish;

- Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender masalalari qo'mitasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy boshqarmalari joylardagi NNTlar bilan hamkorlikda oilalarda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, ayollar va bolalar salomatligini mustahkamlash, ayollar va qizlarga tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'mak berish, turli salbiy ko'rsatkichlarning oldini olishda yordam ko'rsatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi huquqiy asoslar, turli milliy va xalqaro hujjatlar, ijtimoiy sheriklik va jamoat nazoratini o'rnatish kabi yo'nalishlarda (uchrashuv, davra suhbat, videomuloqotlar, musobaqalar, ko'rik-tanlovlar, o'quv dasturlar va h.k.) tadbirlar tashkillashtirishi maqsadga muvofiq;

- Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender masalalari qo'mitasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Adliya vazirligi, Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va monitoring qilish mustaqil instituti va uning hududiy bo'limlari, O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi hududiy bo'limlari, viloyat hokimliklari, "Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ijtimoiy sheriklikning o'рни va ahamiyati", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun ijrosini ta'minlashda Xotin-qizlar qo'mitalarining o'рни va istiqbolli hamkorlik" kabi mavzulardagi tadbirlarni tashkil etish lozim.

Jamoatchilik fikrini o'rganish natijalariga ko'ra, kuzatuv jarayonlariga jalb etilgan respondentlar mamlakatimizda NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining saylovlarda ishtiroki bo'yicha etarli imkoniyatlar yaratilgan, deb hisoblashadi.

Ushbu imkoniyatlarni bilish va ulardan keng foydalanish nafaqat saylovlarning demokratik ruhda o'tishiga, balki mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ham turtki bo'ldi, deyishga haqlimiz. Bunday hamkorlik yurtimizda xotin-qizlarning salohiyatini yanada rivojlantirish, etakchilik qobiliyatini kuchaytirish, siyosatchi, rahbar va jamoat arboblari sifatida o'zlarini namoyon qilish hamda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axborot va mafkuraviy islohotlar jarayonida ularning ishtirokini kengaytirishda o'z samarasini beradi.

BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1952 yil 20 dekabrda 409-sonli yalpi majlisda ma'qullangan va 1953 yil 31 martda qabul qilingan "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyada ayollar har qanday saylovlarda erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishsiz ovoz berish, saylanish huquqlariga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan. YeXHTning Kopengagen hujjatida barcha odamlar qonun oldida teng va hech qanday kamsitilishsiz qonun tomonidan bir xil himoya qilinish huquqiga ega. Shu munosabat bilan qonun har qanday kamsitishni ta'qiqlaydi hamda barcha shaxslarga qaysidir sifat bo'yicha kamsitishdan teng va samarali himoya qilinishni kafolatlaydi, – deb qayd etilgan [6, <http://www.isrs.uz/uz/election/hotin-kizlarning-sajlov-ukuklari-kafolatlari>].

Mamlakatimizda qabul qilingan Saylov kodeksining etmishinchi va to'qson birinchi moddalariga [7, <https://nrm.uz/contentf?doc=592387>] asosan ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerak.

Qonunlarimizda xotin-qizlar uchun parlamentdagi saylovlarda 30 foizlik kvota mavjud bo'lsa-da, ilgari amalda bu yo'q edi. "2024 yil 27 oktabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovlarda ayollarning ishtiroki sezilarli darajada oshdi. Yangi tarkibda deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar tashkil etadi, bu esa mamlakatimiz tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichdir". [8, <https://chatgpt.com/c/678217e3-ce44-8006-b283-917bd15689fd>].

Soqsiologik tadqiqot tahlili mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning jamiyatda tutgan o'рни zamon talablari darajasida emasligini ko'rsatib turibdi. Masalaga yanada aniqroq yondoshilsa, xotin-qizlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishda ularning o'zlari ham faol ishtirok etishi, o'z-o'zini va oilasini ijtimoiy og'ir ahvoldan olib chiqish uchun harakat qilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

XULOSA

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimining takomillashib borishi jamiyatda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash va kengaytirishga bog'liq bo'lib, ular bir-birini taqozo etuvchi hamda o'zaro uyg'un rivojlanuvchi jarayonlardir. Mamlakatda xotin-qizlar uchun yaratilgan sharoitlar qanchalik yaxshi va imkoniyatlar qanchalik keng bo'lsa, shunga bog'liq ravishda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi ham oshib boradi.

Bu esa o'z-o'zidan xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga, ularni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Zero, har bir shaxsning har tomonlama komil bo'lib borishi, ma'naviy-axloqiy etuklik darajasi jamiyatda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, xotin-qizlarning yuksak ma'naviy va intellektual salohiyatga egaligi, ularning ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi nafaqat davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga, balki jamiyatda xotin-qizlar bilan bog'liq juda ko'p muammolarni ham bartaraf etishda muhim ahamiyatga egadir. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligining oshib borishi ularning ijtimoiy-siyosiy etukligi va jamiyatdagi faolligiga juda katta ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Парсонс Т. Система координат действия и общая теория систем действия: культура, личность и место социальных систем / В кн.: Американская социологическая мысль. - Москва: Издательство МГУ, 1994. - С. 462-478.
2. Туйчиев Б. Политическая культура и демократизация общества (социально-философский анализ). - Тошкент: НУУЗ. 2010. - С.30.
3. Туйчиев Б. Политическая культура и демократизация общества (социально-философский анализ). - Тошкент: НУУЗ. 2010. - С.34.
4. Odilqoriev X.T., G'oyibnazarov Sh.G'. Siyosiy madaniyat. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. - B.44-45.
5. Huseynova A.A. Fuqarolik jamiyati va ayollar. - Buxoro: AGRO PRINT, 2009. - B. 63.
6. <http://www.isrs.uz/uz/election/hotin-kizlarning-sajlov-ukuklari-kafolatlari>
7. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (O'ZR 25. 06. 2019 y. O'RQ-544-son Qonuni bilan tasdiqlangan), <https://nrm.uz/contentf?doc=592387>.
8. <https://chatgpt.com/c/678217e3-ce44-8006-b283-917bd15689fd>.